

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.A. Abduvaliyeva

Markaziy Osiyo o'rta paleolit manzilgohlarining fanda o'rganilishi tarixi (I qism)	654
A.A. Nishonov	
Farg'ona vodiyisida Sevinchxojaxon va Sulton Saidxon kurashi	664
A.A. Aloxunov, B.B. Jo'raqulov	
Tunkat tarixi yozma va arxeologik manbalarda	673
A.A. Nishonov	
Sevinchxojaxon xonadoni tarixi manbalarda yoritilishi	677
R.X. Akbarov	
Turkiston yevropalik aholi vakillarining davlat dumasidagi ishtiroki	681
R.X. Akbarov	
Turkiston mahalliy vakillarining davlat dumasidagi ishtiroki	685
S.V. Yo'ldoshev	
Xalq o'yinlarining tarixiy ildizlari va lokal xususiyatlari	691
A.M. Maximov	
XX asrning 20-30 yillarda Buxoro amirligi muhohijrlari taqdiri	695
A.M. Maximov	
Usmon Xo'ja avlodlari qayerda?	698

ADABIYOTSHUNOSLIK**K.A. Topvoldiyev**

Use of antonyms in Russian fiction and in religious self-consciousness	701
--	-----

H.K. Sabirov

Средняя Азия в путевых заметках Ф. С. Ефремова	706
--	-----

A.P. Kosimov

Конвергенции наследия Т.Мурода с духовным богатством национальной и мировой культуры	710
--	-----

H.A. Jo'rayev, Y.I. Nishanov

Yusuf qissasi syujetining sayyorlik omillari	715
--	-----

H.M. Karimova

Отражение времени: концепция исторического романа в литературе	718
--	-----

Y.I. Nishanov

Umuminsoniy g'oyalar ifodasida ijodiy ta'sirning o'rni	722
--	-----

I.N. Doronina

«Отражение современных социальных реалий в современной Русской литературе»	726
--	-----

Z.F. Gizadaulin

Мотив пандемии в художественной постапокалиптической фантастике	729
---	-----

X. Sharifiddinov

Zamon qiyofalangan tarixiy roman	732
--	-----

E.Ibragimova, N.Sharafutdinova

Teonimik tushuncha ifodalovchi mifologik obrazlar	735
---	-----

G.V. Abdullayeva

Lof she'rlar poetikasi va badiiy-estetik funksiyasi	738
---	-----

S.A. Xodjayev, Ch.I. Turg'unova

O'zbek va jahon folklori namunalarida uchlilik va beshlik timsollarining poetik kombinatsiyalari	745
--	-----

X.A. Abdulxamidova, D.U. Jamoliddinova

Isajon Sulton hikoyalarida peyzajning badiiy ifodalanishi	749
---	-----

X.J. Jamolova

Zullisonaynlik an'anasi va ijodiy ta'sir masalalari	752
---	-----

M.M. Xamidov

O'zbek tarixiy romanlarida qahramon talqini masalasiga doir	755
---	-----

R.M. Umurzakov

Bola obrazining nazariy muammolari	761
--	-----

J.B. Sayidolimov

"Vasiyatnoma" – kichik agiografik asar	765
--	-----



ZAMON QIYOFALANGAN TARIXIY ROMAN
ИСТОРИЧЕСКИЙ РОМАН, ИЗОБРАЖАЮЩИЙ ЭПОХУ
A HISTORICAL NOVEL DEPICTING THE ERA

X.Sharifiddinov
f.f.n., dotsent

Annotatsiya

Maqolada turkiy xalqiar hayotining ijtimoiy jihatlari, ularning dunyoqarash va urf-odatlari, turkiy qavmlarning o'zaro munosabatlari, yashash sharoitlari va yashash tarzlarining romanda qanday yoritilgani haqida gap boradi.

Аннотация

В статье говорится о социальных сторонах жизни тюркских народов, их мировоззрении и обычаях, взаимоотношениях тюркских народов, условиях и быте, освещенных в романах.

Abstract

The article talks about the social aspects of the life of the Turkic peoples, their worldview and customs, mutual relations of the Turkic peoples, living conditions and ways of living are covered in the novel,

Kalit so'zlar: bitig, to'qqiz o'g'uz, tabg'ach, o'n o'q, qitan.

Ключевые слова: битиг, Туккуз ўеуз, табгаач, Ун ук, қитан.

Key words: bitig, nine oguz, tabgach, ten oks, qitan.

KIRISH

Sarlavhada ishorat etilayotgan asar Isajon Sultonning "Bilga xoqon" deb nomlanuvchi romanidir. Romanda "... turkiylar tarixidagi muhim bir bosqich keng ko'lamda tasvirlangan, undagi maqbulu nomaqbtlari holatlarni xolis tasvirlash, sabab va oqibatlarini ochishu bugunimiz uchun o'rnak chiqarish yo'lidan borilgan" (3, 4)ligi uning eng katta o'lchamdag'i ahamiyatini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Keltirilgan ko'chirmada turkiy xalqlar tarixidan bir bosqich tasvirlanganligi ta'kidlanishi barobarida bugunimiz uchun o'rnak bo'ladijan fazilatiga ham urg'u berilgan. Haqiqatan ham, romanda tasvirlangan voqealar, undagi qahramonlar xarakteri, shu qahramonlarning hayotga qarashi, kechayotgan voqealarga munosabati, o'zlar yashayotgan voqelikka baho berishlari kabi ko'plab jihatlar borki, bular, roman tarixiy bo'lishiga qaramasdan, shu kunlarni qiyofalantirayotgandek taassurot uyg'otadi.

- Romandagi bir tasvir orqali bilish mumkinki, tarixiy jarayonlar oqimida shakllangan turkiylarga xos bo'lgan xarakter xususiyatlardan biri – yaroqsizga qo'l ko'tarmaslik o'z mohiyatini yo'qotmagan. Ishbaraga yuzma-yuz bo'lgan tabg'ach: "Ishbara, qo'lingda yaroq-tig'ing yo'q ekan, bo'lmasa, o'zim seni yer tishlatardim, - dedi keyin, o'zicha gerdayib.

- Uning kichkina yuziga, ingichka bilaklariga qarab, ishbara iljaydi.

- Nega tirjayasan? – dedi tabg'ach, o'z ust-boshiga qarab. – Siz, yaroqli yaroqsizga tig' ko'tarmaydi, demasmidingiz? Biz aytmaylikmi?" (4, 14)

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ko'rindiki, turklarga xos mardlik uning dushmanlari tomonidan ham tan olingen. Oradan ming yildan ko'proq vaqt o'tishiga qaramay, turkiylarning yashash tarzida, tarixan farqlanuvchi o'ziga xos tomonlar bilan birgalikda, umumiyliliklar ham mavjudki, bu umumiyliliklarda, D.Quronov ta'kidlaganidek, maqbul va nomaqbul jihatlar ham ko'zga tashlanadi. "Bilga xoqon bitigi"da shunday jumlalar bor: "To'qqiz ug'uz mening xalqim edi.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Falak, yer fitnaga to'lgani uchun, taxting kuni bitgani uchun dushman bo'ldi... O'g'uz qochib Tabg'achga qo'shildi. Xafa bo'lib, lashkar tortdim, bolasini, bekasini o'shanda oldim" (, 32).

Nomaqbul jihat nimalarda ekanligi ochiq ko'rinish turgan bu yozuvlar bundan ming yillar oldin muhrlangan bo'lismiga qaramay, hozirda ham fitna va ig'volar o'z ishini bajarishdan to'xtagani yo'q. Aksincha, turkiy xalqlar orasiga dushmanlik urug'ini sepish yanada globallashgan maydonlarga ko'chdi. Har qalay, bu fitnalar turkiylar tomonidan anglab borilyapti, biroq omma haqida bu gapni aytish bir muncha qiyinroq. Turkistonning juda ustakorlik va ayyorlik bilan bo'lib yuborilishi fitnalar kuchiga kuch qo'shadi, xolos. Bilga xoqon O'g'uzning Tabg'achga qo'shilishidan o'sha davrda xafa bo'lgani hozir uchun saboq bo'lishi zarur.

Romanda kishilarning yo'qsullik tufayli tubanlashib ketganligi haqida gap ketadi. Bu qanday yo'qsullik edi? Romanning boshlanishida turkiylar maskan tutgan Ko'gman tog'i etaklaridagi qish havosi tasvirlanadi. "Ko'gman tog'i etaklariga qish bola tashlagan, qor momoguldurak bilan yoqqan edi". Bu romanning birinchi jumlesi. Shunday kunlarning birida yonma-yon qo'nalg'adan ikki kishi chiqadi. Bularning biri Ishbara yamtar, ikkinchisi Bulut edi. Hol-ahvol so'ragan Bulut "yeyishga bir nimang bormi" deb so'raydi. "Yo'q" deb javob beradi Ishbara. Ikkovlashib, kaklikka qo'yilgan tuzoqdan xabar olish uchun yo'lda tushadilar. Yo'l-yo'lakay suhbatlashib boradilar.

- Mol-qo'yni yeb bitirdik, - dedi Bulut. –Oshliq tugab bitdi, et yo'q. Jo'jiqlar ochidan o'layotir...

- Menda-da shu, enam och, - dedi Ishbara...
- Shunday alamlı damda, azob o'tida Ishbara deydi:
- Bilga xoqon so'zini aymabmidim? U ne debdi? Kishi o'g'li o'lgani tug'ilarmish, debdi.

Shoqol kabi pisib yotmay chopaylik, yo'q bo'lmaylik debdi. Qay biringiz quloq osdingiz! Budun bo'shashdi, ochidan o'ldil (4, 11, 12).

Savash – so'qishda o'lishni afzal hisoblagan. Bulut "Er o'g'ling qul bo'ldi. Suluv qizing cho'ri bo'ldi. Yov kului, sevindi" deya yig'lab yuboradi. "Siqtama" deb yupatishga urinar ekan, Ishbaraning o'zi ham ko'z yoshlari soqoliga oqib tushayotganini sezmas edi. (4, 12).

Bu chinakam yo'qsillik bo'lgan. Yemish mutlaqo tugagan. Ochlik o'limga aylanayotgan payt. Yemish uchun ov o'ljasiga umid bilan borayotgan yigitlarni ko'z yosh to'kishga majbur etgan yo'qsillik.

Mana shu yo'qsillik tufayli odamlar o'zaro bir biri bilan yovlashar edi, to qon to'kishgacha borishar edi, er-yigitlar erligi tugagan, ular qalbidan g'ururi o'chgan, mutelik ongu shuurini band etgan, "...Tabg'ach yo qitanga yollanib, er otiga to'g'ri kelmaydigan yumushlarni qilib yurishardi. ...topganlarini oyda-yilda bir ena-otasiga yuborib, o'zları o'sha yurtlarda esankirab, yerdayin bo'lib yashashardi" (4, 26).

Bu haqiqiy yo'qsillik. Inson zotini yashashdan to'ydiradigan, umidsizlik dunyosiga cho'kitiradigan yo'qsillik. Romanda nihoyatda chuqur va ta'sirli tasvirini topgan. Bu tasvirdagi hayot kishini hayot haqida obdon o'ylashga majbur etadi. Hayot va yashash qonun-qoidalari, turmush tutimlari haqida fikr-mulohaza yuritish, shu asosda yashashning to'g'ri yo'llarini topishga undaydi. Bu jihatdan roman katta ta'limiylar va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Chunki ming yildan oldingi hayot tarzining qaysi qirralari bizga zamondoshlikda davom etayotganini, albatta, anglash, his etish ko'pgina qarashlarimizni o'zgartirishga, yangilashga majbur etadi. Chunki bizning shu kunlarimizda ham, mohiyat e'tibori bilan, yuqorida tasvirlangan hodisalarini ko'rish mumkin.

Lekin hozirgi zamonda yo'qsillik, yuqoridagi tasvirda ko'rsatilganidek, mutlaq yo'qsillik emas. Bu yo'qsillik, agar chindan ham yo'qsullik bo'lsa, bexuda urf-odat, bid'at, ortiqcha maqtanchoqlik, qo'ni-qo'shnilar, mahallaning ko'zga ko'rinnmas tazyiqlari, ig'vo hamda muhokama gaplari maydonida o'zimiz tomonimizdan yetishtirilgan yo'qsillikdir. O'tgan asrning boshlarida jadidlar tomonidan keskin tanqid ostiga olingen yaramas tutimlar bu asr boshlarida kuchaysa, kuchaydiki, barham topgani yo'q. "Bilga xoqon" romanidagi ijtimoiy hayot tasvirini jadidlar falsafasi doirasida ham talqin qilish mumkin.

Romanda turkiylarning soddaligi ko'p o'rinnlarda takrorlanib turadi. Bilga xoqon yig'ilgan elga qarata qilgan murojaatida ham shu soddalik tilga olinadi.

O'lguday to'g'risan, bo'shsan, ishonuvchansan. Shuning uchun Tabg'ach qo'lida ellik yil qolding. (4, 34).

Mardligi o'zini bezovchi xalqning xarakteridagi manfiy jihat ayni shu to'g'riliqi, o'zgalarni ham o'ziday bilishi, unga ishonishida edi. Roman tasviridagi shu jihat hozirni ham aks ettiradi. Turkiy o'zbekda soddalik, bo'shlik bor, u dushman maqtovi tuzoq ekanligini har doim ham anglay bermaydi. Romanning ijtimoiy qimmati ana shularda ko'rindi – o'tmishta boq, tabg'ach qo'lida qolishing sababini tushun, hoziringni mulohaza qilishni tark etma, senga kimlar shirin so'zlar aytmoqdayu, uning zamirida nima bor, ajrat, kim achchiq so'zlar demoqda va uning ham tag ma'nosi nimani ifodalayapti, sinchikla, saboq olishdan tinma, charchama. asarning g'oyaviy strukturasidagi bir jihat shundan iboratdir.

Asarda tarixiy haqiqatning go'zal tasvirlaridan biri turkiy dunyoda ayolga bo'lgan munosabat ifodalarida aks ettirilgan. Turkiy xalqlar jamoasida ayolning o'rni, mavqeい haqida L.Gumilev quyidagilarni yozadi: "Ayolga munosabat hurmat va ehtirom asosiga qo'yilgan edi. O'tovga kirib kelgan o'g'il farzand avval onasiga, undan so'ng otasiga ta'zim bajo keltirardi... Ona tomonidan qarindoshlikka katta ahamiyat berilgan. ... ayollar huquqining chegaralanishi, o'ylaymanki, keyin paydo bo'lgan hodisa". (1, 83, 84)

Ayollar ham jamiyatdagi mavqeiga loyiq bo'lganlar. Romanda shunday tasvir bor: Bilga xoqon jangga chorlovi jarayonida ayollarga ham murojaat qiladi. Ayollardan "sochlari oppoq bir ena:

- Men o'g'llarimni barini alp qilib tuqqanman! Qo'rqaq o'g'il tuqqan bo'lsam, qo'rqaqligini ko'rmasdan o'lib ketay... (4, 35)

Ayollar jangga otlangan o'z erlarini yig'i-sig'i bilan emas, ularning izlariga suv sepib kuzatishgan – suvday borib, suvday kelsin. (4, 36). Ayol erk va hur hayot uchun jang-urushni qo'llaydi. Lekin har qanday urushni emas. O'z qavmlari o'rtasidagi urushlarga qarshi harakat bilan chiqib, jangu jadalga barham berishda ham ayollar yetakchi mavqega ega bo'lganlar. O'n o'q bilan qitanning birlashgan kuchlariga yuzma-yuz kelishganda, Bilga xoqon katta jang bo'ladi deb o'ylaydi. Biroqshu asnoda o'n o'q qavmi ichidan bir ayol chiqib keladi. Bir-biridan ko'z uzmay, urush va qirg'inni xayolidan o'tkazib, jonlantirib turgan ikki tomon o'rtasiga yetib kelgan ayol "otliqlar ko'z o'ngida yerga bir nimani" tashlaydi. Bu bir nima ayol ro'moli edi. Askarlar safida turgan Ishbara "endi urush bo'lmaydi" deganida, Bulut nima uchun bo'lmasligini so'raydi.

- Ko'madingmi, boshbog'ini yerga tashladi. "Dovruqli turkiylarda shunday tuzuk bor edi. agar urush to'g'rilikcha bitmasa, erlaru og'a-inilar bir-biri bilan kelisholmasa, xotinlar qo'shin oldiga chiqib, boshidagi yopinchig'ini yerga tashlar edilar". (4, 69) Ishbara so'zini davom ettiradi.

- Endi uni bosib o'tgani bironta erni kuchi yetmaydi.. Manaman degan botiring shu bitta aba oldidan o'tolmaydi.

XULOSA

Turkiy udumga ko'ra, bir ayol urush taqdirini hal qilish darajasidagi mavqega ega bo'lgan.

Isajon Sultonning bu asarida turkiy xalqlar hayotining ko'pgina ijtimoiy muammolari qalamga olingan. Bularning barchasi tarixiy voqealar bilan bog'liqlikda tasvirlanadi. Lekin bu tasvirlarda hozirgi kunlar muammolari ham o'z qiyofalarini ko'rsatib turadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Гумилев Л.Н. Қадимги турклар. – Тошкент: "Фан", 2007.
- Қадимги ҳикматлар. – Тошкент: Гафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашириёти, 1987.
- Куронов Д. Узликни англаш қиссаси. Китобда: "Исајон Султон. Билга хоқон". – Тошкент: "Factor books", 2022.
- Султон И. Билга хоқон. – Тошкент: "Factor books", 2022.
- Шарафиддинов Х. УРУШ ГУВОХИ БҮЛГАН ДАРЕ
Filologiyaning dolzarb muammolari va innovatsion yechimlari, 2023.
- Sharafutdinova N. Undalma teoniimlar tavsif sifatida. Analytical Journal of Education and Development 3 (3), 111-116, 2023.
- Sharafutdinova N. THE WORDS GOD AND BLUE (КО,К) ARE THEONYMS, THE WORDS GOD AND BLUE (КО, К) ARE THEONYMS, Vol-7-Issue Q2- 2022